

O`ZBEKISTON DIPLOMATIYASINING MINTAQA XAVFSIZLIGINI
MUSTAHKAMLASHGA DOIR HARAKATLARI VA TARIXI
ISTIQBOLLARI

Kamolov Murodjon Jo`rabek o`g`li

Buxoro davlat pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasida talabasi

+998940780445

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasi diplomatiyasining tarixi va uning kelajakdagi istiqbollari batafsil yoritilgan bo`lib, hozirgi kunda ushbu sohada mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar shuningdek xavfsizligiga doir harakatlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: diplomatiya, xalqaro shartnoma, elchi, tashqi siyosat, ichki siyosat, BMT Bosh Assambleyasi, AQSH Davlat departamenti.

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so`ng turli xil sohalar qatori tashqi siyosiy yo`nalishlarini rivojlantirish bo`yicha amaliy harakatlarini boshlagan. O`zbekiston o`z oldiga nafaqat izchil ichki siyosat yuritishni, balki faol tashqi siyosat yuritishni ham asosiy vazifa qilib qo`ygan bo`lib, shu maqsad yo`lida tizimli ishlar olib borilmoqda. Qadim tariximizdan ma`lumki, xalqaro munosabatlar qadimdan insoniyat ijtimoiy, madaniy, manaviy rivojining muhim omili sifatida shakllanib, rivojlanib kelgan. O`zbek davlatchiligi vujudga kelishi bilan diplomatik munosabatlar olib borila boshlagan. To`g`ri, u ma`lum voqealar ta`sirida ayrim hollarda susaygan, ba`zi vaqtlarda muvaffaqiyatsizliklar girdobiga duch kelgan lekin hamma vaqt o`z shakl va mazmunida qadimiy va turkiy urf-odatlar Movarounnahrda azaliy turkiy o`troq hamda ko`chmanchi xalqlarning bu sohada an`analarini davom qildirgan, uni turli shakl va ko`rinishlarda o`zida aks ettirib kelgan.

Turkiston sarhadlarida bu zaminda vujudga kelgan va faoliyat ko`rsatgan davlatlar hukumdorlari tomonidan amalga oshirilib kelgan diplomatik munosabatlar qadim zamonlardan oq „Elchilik aloqalari“ deb yuritilib kelgan. Bu tushuncha uzoq o`tmishga egadir.

Demak, diplomatiya tariximiz juda qadim zamonlardan oq turkiy qavmlar o`rtasidagi munosabatlarni tartibga solish „Ellar“ o`rtasidagi nizolarga barham berish, o`zaro yaxshi munosabatlarni yo`lga qo`yish tarzida vujudga kelgan va u asta-sekin turkiy qavmlarning o`zaro bordi-keldilariga eng yaxshi an`analarni o`zida mujjasamlashtira borib, izchil qonun-qoidalarga ega bo`lgan diplomatik munosabatlar

tarzida, ya'ni „Elchilik munosabatlari”ga aylangan. O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilk davlatlar: Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Temuriylar va uch xonliklar davrida asosiy e'tibor qaratiladigan sohasi bo'lgan, chunki mustaqillikni, mustahkamlash, mamlakatlarning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan xorijiy davlatlar bilan olib boriladigan faol tashqi siyosatga bog'liq. Buyuk ipak yo'lida joylashgan mamlakatimiz asrlar davomida xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni shakillantirib, o'zaro diplomatik aloqalar olib borgan. Bu jarayon ayniqsa, buyuk davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur davrida rivoj topgan. Amir Temur o'z davrining qudratli davlatlaridan birining asoschisi, ilm-fan madaniyat homiysi bo'lish bilan bir qatorda, o'z vaqtida Yevropa va Osiyo qit'alarida ro'y bergan tarixiy o'zgarishlarga hal qiluvchi ta'sir o'tkazib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan mohir diplomat ham bo'lgan. Xorijiy davlatlarning hukumdorlari bilan olib borgan yozishmalarida, diplomatik xatlarida sharq diplomatiyasiga xos etikaning yaqqol sezilib turishi, mamlakatlar o'rtasidagi sovuqchilik va muammolarni tinch yo'l bilan oqilona hal qilishga intilishi Amir Temur tashqi siyosatining o'ziga xosligidan dalolatdir. Shuning uchun ham Temuriylar davri diplomatiyasi o'tmishdagi xalqaro munosabatlarning eng yorqin sahifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Amir Temur bundan olti asr avvalroq xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalar o'rnatmay turib, mamlakatning ichkarisidagi istiqbolga erishib bo'lmasligini teran anglagan edi. Angilya, Fransiya, Usmonli Turklar, Ispaniya, Xitoy, Hindiston kabi turli mamlakat hukmdorlari bilan amlaga oshirgan yozishmalri va diplomatik aloqalari buning yaqqol tasdig'idir. Amir Temur davlatining tashqi siyosati, uning xorijiy mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari tarixchiligimizdan hali jiddiy qo'l urilmagan sohalardan birini tashkil etadi. To'g'ri chet ellarda bu borada ancha-muncha ishlar e'lon qilingan. Masalan, fors tilida 1928-yilda Bombayda¹, 1963-yil Tehronda² chop etilgan Eronga oid hujjatlar va maktublar majualarida Temur davriga tegishli juda ko'plab yozishmalar o'z aksini topgan. Amir Temur davriga taalluqli diplomatik hujjatlar Turkiyada bosilgan qator tarixiy asarlar sahifalaridan ham o'rin olgan.³ O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan „Maktuboti Temuriya” majmuasi kabi Amir Temur faoliyati haqidagi asosiy manbalarda o'z aksini topgan diplomatik hujjatlar hali-hanuz jiddiy ilmiy izlanishlar manbaiga aylanmay turibdi.

Yurtimizda Amir Temurga o'xshagn mohir diplomat va elchilar ko'plab yetishib chiqqanqanligiga qaramay, ularning faoliyati chuqur o'rganilmagan. Bu haqida

¹ 1. Mirzo Muhammadxon Qazviniiy. Bist maqoloti Qazviniiy. Bombay. 1928.

² Abdulhusayin Nvoiy. Asnod va makotibi tarixi-yi-Eron. Tehron. 1341.

³ Masalan, ulardan biri – Ismoil Aqa . Temur va davlati turk tilida. Anqara, 1991.

davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning 11-yanvar kuni bo`lib o`tgan O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijdagi elchixonlari faoliyatiga bag`ishlangan nutqida: „Bizning boy madaniyat va qadimiy tarixga ega davlatimizdan o`z davrining mohir diplomatlari ,elchilari yetishib chiqqani to`g`risida ko`plab ma`lumotlar mavjud, ammo ularning hayoti va faoliyati,afsuski,hozirgacha chuqur va atroflicha o`rganilmagan.Tashqi ishlar vazirligi bunga e`tibor qaratib,ushbu masalaning tarixiy ildizlari,mustaqillik davrida o`zbek diplomatiyasining shakillanish jarayonlari haqida alohida kitob chiqarsa, bu soha xodimlari,avvalo,yosh diplomatlar uchun muhim qo`llanma bo`ladi”,-deb ta`kidlab o`tgan.

Sobiq ittifoq tarqalib , „Sho`ro imperiyasi” va „Jahon sotsializm tizimi ” deb atalmish tizimi tanazzulga yuz tutganidan keyin dunyo sisyoziy xaritasida erkin rivojlanish yo`lini tanlagan yangi mustaqil davlatlar paydo bo`ldi .Ular sirasiga jahon hamjamiyatining haqli ravishda tarkibiy qismiga aylangan suveren O`zbekiston ham kiradi. O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng mustaqil ravishda o`z tashqi siyosatini yuritish imkoniyatiga ega bo`ldi.Yurtimiz tarixda faoliyat ko`rsatgan davlatlar diplomatiyasining o`ziga xos xususiyatlaridan biri uning boshqa xalqlar,mamlakatlar va ularning hukumdorlariga nisbatan g`oyat hurmat va e`tibor bilan yondashishga o`z ifodasini topgan .Bu hol bizgacha yetib kelgan elchilik yozishmalari mazmunida shundoq ko`rinib turibdi. O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi SHarqshunoslik instituti qo`lyozmalar majmuasida ko`plab diplomatiya tarixiga oid hujjatlar jamlangan maktublar to`plamlari mavjud. Ular turli tarixiy davrlarga masub bo`lib, Turkiston hukumdorlarining tashqi dunyo bilan yuritib kelgan aloqalarini o`zida mujassam etgan.Turkiston sarzaminida faoliyat ko`rsatib o`tgan davlatlar hukumdorlarining bizgacha yetib kelgan barcha diplomatik yozishmalariga xos dastlabki narsa shuki, ularning hammasi yuborilgan el yoki mamlakatlarning ulug`lari va hokum-farmonlariga nisbatan g`oyat katta hurmat bilan bitilgan.Asilda elchilar orqali yuborilgan bu maktublarni qo`shni yoki uzoq davlatlar,ularning xalqi va hukumdori sha`niga qaratilgan maqtov hamda ezgu tilaklardan iborat bir payg`om hujjat sifatida baholash mumkin.Ushbu diplomatik uslub tomonlar o`rtasidagi qarama-qarshiliklar yoki anglashilmovchiliklarni muzokaralar yo`li bilan hal etishga, ko`pchilik hollarda oradagi gina-qudratlarga barham berishga,umuman, yaxshi munosabatlar yo`lida paydo bo`lgan turli g`ovlarni bartaraf etishga hamisha yo`l ochib bergan. XIX arda O`zbekiston hududida joylashgan davlatlar Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgandan so`ng mustaqil tashqi siyosat yuritish huquqidan mahrum bo`lgan ,suverentitetini yo`qotgan, faqatgina markaz manfaatlari uchun xizmat qilishga majbur bo`lgan mamlakatimiz uchun tashqi siyosat o`z ahamiyatini yoqotgan edi.Ammo xalqimizning asriy orzu istaklari ro`yobga chiqib,istiqlolga erishganimizdan so`ng suveren O`zbekiston diplomatiyasining

dastlabki qadamlari qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini samarali yo'lga qo'yish, Respublikaning siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay tashqi sharoitni vujudga keltirish, xalqaro munosabatlarda va xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston respublikasi fuqarolari va davlat manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida Vazirlar mahkamasining 1992-yil 25-mayda „O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida”gi qaror qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosati 1994-yil mart oyida qabul qilingan „O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi va 1996 -yildagi „O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari to'g'risida”gi qarorlar asosida shakllantirildi. Shu tufayli istiqbol yillarida davlatimiz 133 ta dan ortiq mamlakatlar bilan rasmiy munosabatlar o'rnatdi, hozirda Toshkentda 45 ta xorijiy davlatlarning elchixonalari, 9 ta konsullik, 11 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda⁴. O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, prinsiplari, strategik ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalari 2012-yil sentabrda qabul qilingan „Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi”da o'z aksini topgan. Bu konsepsiya O'zbekiston milliy manfaatlarini ilgari suradigan ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradigan qarashlarining yaxlit tizimidir.

Muhokama va natijalar

O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirish uchun faol va tinchliksevar faoliyat olib bormoqda. Masalan, 1992-yil 2-martda respublikamiz tashqi siyosiy va ijtimoiy hayoti tarixida unutilmas sana bo'lib qoldi: -O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zoligiga qabul qilindi. Mamlakatimiz, shuningdek, Xelsinki jarayoniga qo'shib Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining teng huquqli ishtirokchisiga aylandi. Jumladan, butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'maklashish, yadro quroli tarqalishning oldini olish bo'yicha bildirilgan takliflar jahon hamjamiyatini birlashtirishga intilayotgan BMT tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Mamlakatimiz o'z tashqi siyosiy faoliyatini milliy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarish, respublika tevarigidagi xavfsizlik hududi yaratilishi, yaxshi qo'shnihilik va hamkorlik bo'lishiga imkon beradigan mustahkam o'zaro manfaatli davlatlararo munosabatlar qurish uchun yo'naltirishga bo'lgan intilishi ana shunday omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik jo'g'rofiyasi benihoya kengdir. U AQSH to Yaponiyagacha, Malayziyadan to Buyuk Britaniyaga qadar bo'lgan hududni qamrab olgan va ayni paytda, O'zbekiston chet mamlakatlarida ishtirok etish uchuniga bo'ladigan diplomatiya ishtirokiga intilmaydi. O'z-o'zidan ayonki, bu yerda tashqi

⁴ 4. O'zbekiston tarixi, o'rta ta'lim maktablarining 11- sinf o'quvchilari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun darslik-T.; G'afur G'ulom, 2018. 111-bet

siyosiy faoliyat sohasini toraytirish yohud cheklash haqida soʻz borayotgani yoʻq. Eng muhimi, tashqi siyosat samarali, aniq, ravshan ifodalangan, boshqacha qilib aytganda, mamlakat ichki rivojlanishining ehtiyoj va vazifalariga mos hamda muvofiq kelishiga qodir boʻlishi joizdir. Oʻnlab xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilib, umumbashariy va mintaqaviy integrasiya jarayonlarida ishtirok etar ekan, Oʻzbekiston bir umumiy tamoyilga qatʼiy rioya qiladi: bir mamlakat bilan yaqinlashish boshqasi bilan uzoqlashish evaziga boʻlmasligi kerak. Oʻzbekistonning jahon hamjariyatiga integratsiyasi-bu keng qamrovli va koʻptarmoqli jarayondir.

Oʻzbekiston tashqi siyosatida muhim ustuvorlik, tabiiyki, qoʻshnilar bilan, avvalo, mintaqadagi davlatlar bilan rivojlantirish va mustahkamlashidir. Oʻzbekiston ular bilan qadim-qadimdan qon-qarindosh ularni chuqur tarixiy maʼnaviy madaniy yaqinlik, diniy birlik, Alisher Navoiy va Abdirahmon Jomiy, Bobur va Toxtagul kabi xalqimizning boshqa koʻpdan koʻp buyuk allomalariga beshik boʻlgan umumiy zamin birlashtirib turadi. Oʻrata Osiyo Qozogʻiston xalqlarining abadiy doʻstlik va hamkorlik toʻgʻrisidagi shartnomaga asoslangan yaxshi qoʻshnichiligi ana shunday mangu qadiryatdir, uni asrab-avaylash, mustahkamlash, rivojlantirish kerak. Oʻtgan 15 yillikda boʻlgani singari yaqin va uzoq muddatli istiqbolda ham milliy diplomatiya imkoniyatlari yaxshi qoʻshnichilik rishtalarini mustahkamlashga, mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni davr talablariga muvofiq tarzda yangi mazmun bilan boyitishga yonaltirilgan. Dunyoning koʻpgina yetakchi mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlari izchil va barqaror rivojlanmoqda. Jumladan, Gʻarb, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Janubiy-Sharqiy va Janubiy-Osiyo, Yevropa Ittifoqining sanoati rivoj topgan mamlakatlar bilan ham 1996-yili Florensiyada Oʻzbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi oʻrtasida sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimning imzolanishi mamlakatimizning chet el davlatlari bilan munosabatlaridagi burilish nuqtasi boʻldi. Mazkur hujjatni imzolash marosimida Yevropa Ittifoqiga aʼzo mamlakatlar davlat va hukumat rahbarlarning ishtirok etgani ham mamlakatimizning xalqaro miqyosidagi obroʻ-eʼtiborini yuksakligidan dalolat beradi. Yangi mustaqil davlatlar orasida faqat ikki mamlakat Oʻzbekiston va Rossiya ana shunday sharafiga loyiq boʻlgan. Oʻzbekiston tashqi siyosiy faoliyatidagi markaziy muammolardan biri bu ham global darajada xavsiz va tinchlikni saqlash sohasidagi xalqaro hamkorlik hisoblanadi. „Tashqi siyosatning asosiy tamoyillari toʻgʻrisida“gi Qonunga muvofiq, Oʻzbekiston harbiy-siyosiy bliklarda qatnashmaydi, biroq davlatlararo xavsizlik tizimlari doirasida yaqindan va oʻz ifodasini aniq topgan hamkorlikka intiladi. Mana shuning uchun ham Oʻzbekiston tashqi siyosatining muhim vazifalaridan biri oʻtgan oʻn besh yil mobaynida mintaqa xavfsizligi tizimini shakllantirish boʻlib keldi va shunday boʻlib qoladi. Bu Markaziy Osiyo davlatlari uchun qaʼy darajada zarur boʻlsa, joʻgʻrofiy jihatdan keng hududga ega boʻlgan mazkur mintaqaga yondosh boʻlgan mamlakatlar uchun ham shu darajada muhimdir. 2001-yil iyun oyida Shanhay

hamkorlik tashkiloti tuzilgani buning aniq dalili bo'la oladi. O'zbekiston uning ta'sislaridan biri vat eng huquqli a'zosi hisoblanadi. Bugun O'zbekiston jahon hamjamiyatida katta kuch va salohiyatga ega bo'lgan hamda dunyo siyosatining belgilaydigan davlatlar bilan teng huquqli hamkor sifatida mustahkam aloqalar o'natilganligi o'zi katta gap. Avvalo shuni aytish kerakki, yosh va hali ancha tajribasiz bo'lishiga qaramasdan o'zbek diplomatiyasi dastlabki kunlardan oq keng qamrovli izchil faoliyat yuritdi. O'tgan davrni keng mushohada qilish, dunyo siyosati taniqli arboblarning bizga nisbatan fikrini o'rganish, jahon ommaviy axborot vositalarida bosilayotgan sharxlar bilan mulohazali tarzda chuqquroq tanishish va nihoyat, ana shular asosida fikrni charxlab, aniq hulosaga chiqarish natijasidagina keng dunyoga dallolar va vositachilarsiz chiqqanligimizning boyisini, mazmun mohiyatini anglab O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning BMT tantanali yig'ilishida so'zlagan nutqida kiritgan va xalqaro miqyosda aks-sado bergan taklifini eslaylik. O'shanda davlatimiz raxbari shunday degan edi: „, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalarini isloh qilish, uning faoliyatini samaradorligini oshirish zarurligi to'g'risida gapirilar ekan, quyidagilarni amalga oshirish zarur bo'lib ko'rinadi.

Birinchiidan, Xavsizlik Kengashi safini kengaytirish, unga misol uchun bugungi kunda jaxon siyosatida muhim o'rin egallagan Germaniya va Yaponiya singari davlatlarni doimiy azosi sifatida kiritish lozim;

Ikkinchiidan, BMT qabul qilgan qarorlarni tezkorlik bilan amalga oshirish BMT bosh kotibi vakolatlarini kuchaytirish lozim;

Uchinchiidan, ziidiyatli vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish manfaatlarini ko'zlab, BMT ning xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatini kuchaytirish zarurligi ham, bu tashkilotning o'ziga qarashli mintaqaviy tuzilmalarini yanada rivojlantirish zarurligi ham tobora ayon bo'lib qolmoqda”⁵

2020-yil 29-dekabrda bo'lib o'tagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasida 2021-yilda mamlakatimizning tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarga ustivor ahamiyat berib berilishi aytib o'tildi;

Birinchiidan, davlatimiz olib borayotga ochiq, pragmatik va amaliy tashqisiyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategic maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi takomillashtirildi.

Ikkinchiidan, tashqi siyosatimizning ustivor yonalishlaridan bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asirlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategic sheriklik va o'zaro ishonch ruhida aloqalarimizni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. Murakkab pandemiya sharoiti biz bir-birimizga qanchalik bog'liq va kerak ekanimizni yanada bir bor yaqqol namoyon etadi. Bu ijobiy jarayonlarini chuqur o'rganish va yanada rivojlantirish maqsadida 2020-yilda Toshkentda shahrida

⁵ 1. Xalqaro munosabatlar diplomatiya tarixi Buxoro-2015.115-bet.

Markaziy Osiyo xalqlari instituti tashkil etildi. 2021-yilda Toshkentda mintaqamizning Janubiy Osiyo bilan munosabatlariga doir yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o`tkazildi. Shular qatorida Xiva shahrida „Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasi chorrahasida“ xalqaro anjumani YUNESKO bilan hamkorlikda o`tkazildi.

Uchunchidan, O`zbekiston „Qo`shning tinch-sen tinch“ tamoyili asosida qo`shni Afg`oniston zaminida tinchlik o`rnatilishi uchun tizimli ishlar olib brogan va bu ezgu yo`lda amaliy yordamini bundan keyin ham ayamaydi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoni Hind Okeani bilan bog`laydigan Trans-afg`on transport yo`lagini barpo etish borasida dastlabki amaliy qadamlar tashlandi. Bu loyihaning ro`yobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o`rishini ta`minlashga beqiyos xizmat qiladi.

To`rtinchidan, jamiyatda millatlararo totuvlik va bag`rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish kerakligini ta`kidladi. Ma`lumki, Birlashgan Milltlar Tashkiloti Bosh Assambeliyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30-iyul- Xalqaro do`stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois davlatimiz rahbari ushbu sanani O`zbekistonda „Xalqlar do`stligi kuni“ deb belgilashni taklif qildi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, O`zbekiston yer yuzidagi ko`plab mamlakatlar bilan turli sohalarda o`zaro manfaatli aloqalarni keng yo`lga qo`yib kelmoqda, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikning barcha shakillarini rivojlantirish yo`lida izchillik va qat`iyat bilan odimlamoqda. Jahon miqiyosida raqobat, qarama-qarshilik, turli manfaatlar to`qnashuvi, geopolitik ziddiyatlar tobora kuchayib borayotgan bu zamonda biz kuchli tashqi siyosat olib bormasdan turib ko`zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Ishonamizki, kundan kunga tashqi olam uchun ocilayotag Yangi O`zbekiston jonkuyar rahbar boshchiligida mintaqaviy va ko`p tomonlama o`zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlab, geosiyosiy muammolar avj olgan keskin o`zgarishlar zamonida o`zining kuchli pragmatik siyosatiga sodiq qoladi va kutilganidek, xalqaro diplomatiyalar markaziga aylana oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Mirzo Muhammadxon Qazviniiy. Bist maqoloti Qazviniiy. Bombay. 1928.
2. Abdulhusayn Navoiy. Asnod va makotiboti tarixi-yi-Eron. Tehron. 1341
3. O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi.
4. Akademik M.M. Xayrullayev „ O`zbek milliy diplomatiyasi tarixidan“ -Toshkent-2003
5. O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi.
6. O`zbekiston tarixi, o`rta ta`lim maktabining 11-sinf o`quvchilari va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalari uchun darslik-T; G`afur G`ulom, 2018
7. Xalqaro munosabatlar diplomatiya tarixi. Buxoro-2015